

**MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNING IJODIY FIKRLASHINI  
RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING  
PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Normo'minova Shahnoza Bozor qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi

1-kurs magistranti.

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalansa bo'ladimi? Aslini olganda bolalarni ijodiy fikrlashini rivojlantirishda texnologiyalardan foydalansa boladi. Bunda bolalarning ota-onalari va o'qituvchilari ijodiy fikrlashi va yaratuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, bolalar, qobiliyat, yosh xususiyatlari, raqamli texnologiya, pedagogik asoslar, ta'lim-tarbiya, rivojlanish.

**Abstract:** Is it possible to use digital technologies to develop creative thinking of preschool children? In fact, it is possible to use technologies to stimulate children's creative thinking. In this, children's parents and teachers help to develop creative thinking and creativity.

**Key words:** organization of preschool education, children, ability, age characteristics, digital technology, pedagogical foundations, education, development.

**Аннотация:** Можно ли использовать цифровые технологии для развития творческого мышления детей дошкольного возраста? На самом деле возможно использование технологий для стимулирования творческого мышления детей. В этом родители и педагоги детей помогают развивать творческое мышление и творческие способности.

**Ключевые слова:** Организация дошкольного образования, дети, способности, возрастные особенности, цифровые технологии, педагогические основы, образование, развитие.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda raqamli texnologiyalarning o'рни beqiyosdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi ko'p qirrali pedagogik- psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir. Ijodiy fikrlash qobiliyatlari bu yosh avlodga innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga turli xil kelishi mumkin bo'lgan muammolarga va inqiroj davrlarida yaxshi yechimlarni topishga yordam beradi. Ayniqsa yosh avlodni ijodiy fikrlashga o'rgatib borish, ularda fikr erkinligini tarbiyalash - kuchli jamiyat, kuchli davlat poydevori qurilishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Rivojlanayotgan jamiyatda raqamli texnologiyalardan foydalansak insonning fikrlash doirasi shunchalik keng bo'ladi. Avvalambor ijodiy fikrlash bolalarning tasavvurini kengaytirishga va ijodkorlik qobiliyatidan foydalanishga yordam beradi. Bizda shu yerda savol tug'lishi mumkin? Nima uchun ijodiy fikrlash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kerak deb? Ijodiy fikrlab raqamli texnologiyalardan foydalanish bu har tomonlama maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga va so'zlashganda fikrini bemalol aytishga ko'maklashadi. Maktabgacha

yoshdagi bolalar ilm fan, texnologiya, rabotatexnika, sa'nat sohalarida yangi g'ayalar va yangi kashfiyotlar ishlab chiqishga ko'maklashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar badiiy ijod qilishni juda yaxshi ko'radilar. Bu bolaga o'z shaxsiyatini eng to'liq erkin shaklda ochib berishga imkon beradi. Barcha badiiy faoliyat faol tasavvurga, ijodiy fikrlashga asoslanadi. Ushbu funktsiyalar bolaga dunyoning yangi, g'ayrioddiy ko'rinishini beradi. Ular tafakkurni, xotirani rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Ancha vaqtlardan beri ijodkorlikning boshlanishi bo'lgan boladagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi bevosita bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilarni ham, ilmiy izlanuvchilarni ham hozirgi davrgacha qiziqtirib keladi. Ta'lim, tarbiya va ijodiy fikrlash shaxsning jamiyatda shakllanishi, qobiliyatlarni rivojlantirish hanuzgacha pedagogikaning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Ijodiy fikrlash - faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Bilish jarayonlari, intilish va boshqalar yaratuvchanlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha jarayonni o'z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy fikrlash ehtiyojini faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan bunyodkorlikni targ'ib qilishni bildiradi. Bolalardagi ijodiy fikrlashning har qanday boshlang'ich bo'g'inlari ta'lim-tarbiya, faoliyatdan tashqarida rivojlana olmaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, maktabgacha yoshdan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini va fikrlashini pedagogik rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, barkamol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh bolalarni voyaga yetkazish poydevori bo'lib hizmat qiladi. Ijodiy fikrlash bolalarda yangi bilim va kichik tajribalarni o'rganishga savol berishga va boshlang'ich kashfiyotlarni izlashga undaydigan tabiiy qiziqish uyg'otadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar qanchalik ko'p ijodiy fikrlaydigan insonlar bilan suxbatlashsa ular shu muhitga tez moslashadi va yangi kreativ g'oyalarni berishga qo'rqmaydilar va jamoaga tez kirishadi. Avvalambor ijodiy fikrlaydigan bolada pedagogik jihatdan qiyinchiliklarga oson yechim topib qat'iyatlikni o'zida namoyon qiladi. Tarbiyachilar rivojlanish markazlarida bolalarning ijodiy fikrlarini rivojlantirishda turli xil qiziqarli savollarni berib bolalarning bilim ko'nikmalarini oshirishi mumkin. bunday fikrlar bolalarni ijodiy ko'nikmalarni rivojlantiradi va tasavvurlarini kengroq rivojlantirishga o'rgatishadi. Shunday qilib bolalarda ijodiy fikrlab boalarda raqamli texnologiyalardan foydalanib yangi innavatsion g'oyalarni yaratadi va o'z tasavvurlarini kengaytiradi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ibrohimov F. Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va axloqiy qarashlari xususida. 2022-yil
2. O'rinova Feruza uljayeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv uslubiy taminoti. 2022-yil
3. Tilab Mahmud. Komillik asrorlari. Hayotiy haqiqatlar. - T.: «Adolat», 2006
4. Alieva E.G. Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari // Ta'lim faoliyatini psixologik tahlil qilish M.: IPAN. 1991.